



UDK: 631.11:631.51:631.55

**O‘ZBEKISTONNING JANUBIY MINTAQASIDA TURLI EKISH
MEYORLARIDA QATTIQ BUG‘DOY NAVLARI HOSIL
YIG‘ISHTIRISHGACHA SAQLANISHI**

*Karimova Z.A. -Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti,
agronomiya (dehqonchilik mahsulotlari turlari boyicha) ta’lim yo’naishi 3-bosqich
talabasi,*

*Xalilova T.N. -Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti,
agronomiya (dehqonchilik mahsulotlari turlari boyicha) ta’lim yo’naishi 3-bosqich
talabasi,*

*Bobomirzayev P.X., Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti
O‘simlikshunoslik kafedrasi professori, q.x.f.d.*

Аннотация. В статье приводятся влияние норм высева на выживаемость сорта твёрдой пшеница Крупинка, Карлик 85 и Макуз 3 на орошаемых землях в юге Узбекистана.

Ключевые слова: орошаемые земли, твердая пшеница, сорта, Крупинка, Карлик 85, Макуз 3, норм высева семян, оптимальный норма высева, выживаемость, урожай.

Annotation. The article presents the influence of seeding rates on the survival of the variety of durum wheat Krupinka, Karlik 85 and Makuz 3 on irrigated lands in the south of Uzbekistan.

Key words: irrigated lands, durum wheat, varieties, Krupinka, Karlik 85, Makuz 3, seeding rates, optimal seeding rate, survival rate, yield.

Mavzuning dolzarbligi. O‘zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini taminlash va aholining non va makaron mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojini o‘zimizda yetishtirilayotgan bug‘doy doni hisobiga qondirish uchun sug‘oriladigan yerlarda



bug'doy hosildorlikni oshirish, don sifatini yaxshilash, yangi navlarni yaratish, tuproq-iqlim sharoiti va navlarning biologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ilmiy asoslangan yetishtirish texnologiyasini ishlab chiqish juda muhimdir.

O'simlik tup qalinligi kuzgi bug'doy o'sishi, rivojlanishi va hosildorligini aniqlaydigan muhim omillardan biri hisoblanadi.

Hosilni yig'ishtirish davrigacha o'simliklar sonining saqlanishi juda ko'p omillarga bog'liq bo'ladi. Bug'doy o'stirishda o'simliklar hosilini yig'ishtirishgacha saqlanishiga ekish muddatlari, meyorlari ham bevosita tasir ko'rsatadi. Urug'larning dala sharoitida unuvchanligi, qishlab chiqqan o'simliklar soni, hosilni yig'ishtirishgacha saqlangan o'simliklar miqdorini belgilashda katta rol o'ynaydi.

R.Jabborov [3], N.Xalilov [6] tajribalarida Samarqand viloyati sharoiti uchun yumshoq bug'doy navlari sug'oriladigan yerlarda turli muddatlarda ekilganda o'simliklarni hosilni yig'ishtirishgacha saqlashnishing yuqori ko'rsatgichi maqbul muddatlarda ekilganda kuzatilgan.

Sibir qishloq xo'jalik ilmiy tadqiqot instituti [5] tajribalarida Saratovskaya-29 yumshoq bug'doy navi hosilini yig'ishtirishgacha, qattiq bug'doy navlariga nisbatan yaxshi saqlangan. Bu qattiq bug'doyning tuproqni ekishga tayyorlashda, urug' ekishda texnologik tizimni buzilishiga tasirchan ekanligi bilan tushuntirilgan.

Urug'lar siyrak ekilganda maydonlardan o'simlik yetarli foydalana olmaydi, dalani begona o'tlar bosadi, tuplanishi oshib ketadi, natijada har hil sifatli urug' shakllanadi, mahsuldor poyalar yetarli bo'lmaydi, pishish davri uzayadi. Aksincha zich ekilgan maydonlarda o'simlikka namlik, oziq moddalar yetishmasligi yotib qolishi tufayli tovarligi va urug'ning sifati past bo'ladi, puch donlar hosil bo'ladi, hosildorlik kamayadi [1].

Tajriba obekti va uslubi. Biz dala tajribalarini Qashqadaryo viloyatining Chiroqchi tumanidagi «Ravshanova Tumaris» fermer xo'jaligi sharoitida o'tkazdik. Tajriba obyekti qattiq bug'doyning Krupinka, Karlik-85 va Makuz 3 navlari.



Tajribada bu navlar gektariga 3,0; 4,0; 5,0 va 6,0 mln. dona unuvchan urug' meyorida ekildi. Dala tajribalari 4 qaytariqli hisobga olinadigan paykallarning kattaligi 50 m², 2 yarusli qilib joylashtirildi. O'tmishdosh ekin makkajo'xori don uchun. Tajribada o'simlik parvarishi mazkur mintaqa uchun qabul qilingan agrotexnika asosida bajarildi. Dala tajribasida o'tkazilgan barcha fenologik kuzatuvlar, biometrik o'lchovlar O'zPITining «Dala tajribalarini o'tkazish uslublari» [2] uslubiy qo'llanmalaridan foydalanildi. Hosildorlik bo'yicha olingan malumotlarning dispersion tahlili B.A.Dospexov [4] bo'yicha aniqlandi.

Tajriba natijalari tahlili. Tajribalarimiz natijalarida o'simliklarni hosil yig'ishtirilishigacha saqlanishi gektariga 3,0 mln. unuvchan urug' ekilganda ham yuqoriligi aniqlangan. Ekish meyorlarini gektariga 3,0 mln. dan 6,0 mln. gacha oshib borishi bilan 1 kv. metr maydonchadagi o'simliklar soni kam meyorlarda ekilgandagiga nisbatan ko'p bo'lsada, foiz hisobida kamayib borgan.

Qattiq bug'doy hosilini shakllantirishda mahsuldor poyalarning maqbul qalinligini ta'minlashda ekish meyorlarining ahamiyati katta. Biz o'tkazgan tadqiqotlarda, qattiq bug'doyning Krupinka, Karlik 85 va Makuz 3 navlarida, o'simliklarning hosil yig'ishtirilishigacha saqlanishi, ekish meyorlarining ortishi bilan kamayib bordi (1-jadval).

1-jadval

**O'simliklarni hosil yig'ishtirilishigacha saqlanishining
ekish meyorlari va navlariga bog'liqligi**

Ekish meyori, gektariga mln. dona unuvchan urug'	Krupinka		Karlik 85		Makuz 3	
	1 m ² da saqlanib qolgan o'simlik soni, dona	Saqlang an o'sim- lik, %	1 m ² da saqlanib qolgan o'simlik soni, dona	Saqlang an o'sim- lik, %	1 m ² da saqlanib qolgan o'simlik soni, dona	Saqlan gan o'sim- lik,%



3,0	184	67,8	157	60,0	165	62,7
4,0	228	64,6	197	57,2	212	60,8
5,0	271	62,9	236	55,6	247	57,4
6,0	281	56,0	247	50,3	260	52,2

O'simliklarning hosil yig'ishtirilishigacha saqlanishi ekish meyorlariga bog'liq. Qattiq bug'doyning Krupinka, Karlik 85 va Makuz 3 navlariga muvofiq holda 56,0-67,8; 50,3-60,0; 52,2-62,7% bo'ldi. Krupinka navida bu ko'rsatgich Karlik 85 va Makuz 3 navlariga nisbatan 5,1-7,8% yuqori bo'lishi kuzatildi. O'simliklarning hosil yig'ishtirilishigacha saqlanishi eng yuqori ekish meyorlari gektariga 3,0 mln.urug'chan urug', eng past 6,0 mln. bo'lganda aniqlandi. Ekish meyorlarining gektariga 3,0 mln.dan 6,0 mln.gacha oshirish hosil yig'ishtirilishigacha saqlangan o'simliklarni Krupinka navida 11,8, Karlik 85 navida 9,7, Makuz 3 navida 10,5 % kamaytirdi. Ammo ekish meyorini gektariga 3,0 mln.dan 6,0 mln.gacha oshirish 1 kv. metrdagi hosil yig'ishtirilishigacha saqlangan o'simliklar sonini ko'payishiga olib keldi.

Xulosa. Shunday qilib, sug'oriladigan yerlarda qattiq bug'doy navlari o'simliklarni hosilni yig'ishtirishgacha eng yaxshi saqlanishi optimal ekish meyorlarida kuzatildi.

Maqbul ekish meyorida yuqori hosilni shakllanishini ta'minlaydigan o'simliklar soni saqlanadi.

Адабиётлар

1. Lavronov G.A. Uzbekistan bug'doyi. -T.:«Uzbekiston», 1972. -352 b.
2. Nurmatov SH., Mirzajonov Q., Avliyoqulov A., Bezborodov G., Ahmedov J., Teshayev SH., Niyozaliyev B., Xoliqov B., Xasanova F., Mallaboyev N., Tillabekov



- В., Ibragimov N., Abdualimov SH., Shamsiyev A. «Dala tajribalarini o'tkazish uslublari», uslubiy qo'llanma O'zPITI, (Toshkent, 2007), 146 b.
3. Mamaniyazov S.M. Sug'oriladigan yerlarda qattiq bug'doyning intensiv texnologiya asoslarini ishlab chiqish va joriy qilish. G'allaorol g'allachilik ITI Kattaqo'rg'on bo'limi ilmiy hisoboti. – Samarqand:, 1990. -102 b.
4. Доспехов Б.А. Методика полевого опыта. –М., 1985. -356 с.
5. Mamirov N. Kuzda ekiladigan qattiq bug'doy // O'zbekiston qishloq xo'jaligi. - Toshkent, 1990. - № 9. –В. 47-50.
6. Учваткин А.К. Особенности формирования урожая пшеницы интенсивного типа на орошении при осеннем посеве в южном Узбекистане: Автореф. дисс. ... канд. с-х. наук.- Ленинград., 1987. – 49 с.